

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Каримов Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
D.E.Normatova Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
B.E.Xusanov Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
N.M.Axmadiyev Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda kekxa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
N.N.Teshayev Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari	223
K.G’.Kamolova Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni	227
M.M.Qaxxorova, B.Farfiev Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
K.U.Sharipova Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
S.A.Xayrullayev Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
O’.X.Rajabov Maslahat – konsensusning sinergetik omili	248
Sh.T.Abbosova Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch	251

SIYOSAT

K.X.Avazov Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
A.A.Abdilxamedov Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
B.Y.Paluaniyazov Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
U.M.Kuranov Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati	270

ТАРИХ

Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
M.X.Исамиддинов Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
X.Raxmatillayev Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar	314
F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari	318
N.S.Abdullayeva Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
S.B.Xakimova “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
Ш.Т.Темиров Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие	332

**MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TAHDIDLARNING
NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI****СПОСОБЫ ПРОЯВЛЕНИЯ УГРОЗ, ВЛИЯЮЩИХ НА БЕЗОПАСНОСТЬ
СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ГОСУДАРСТВ****WAYS OF MANIFESTATION OF THREATS AFFECTING THE SECURITY OF CENTRAL
ASIAN STATES****Paluaniyazov Bayram Yesemuratovich¹**¹Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlari borasidagi ilmiy qarashlar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada dunyoda bo'layotgan global murakkab o'zgarishlar Markaziy Osiyo mintaqasiga ham o'zining jiddiy ta'sirini ko'rsatayotganligi bu esa mazkur hududdagi davlatlarning milliy xavfsizligini ta'minlash doirasida keng ko'lamli muammolarni tizimli hal etish zarurati ilmiy jihatdan yoritilgan.

Аннотация

В данной статье описывается характеристика угроз, затрагивающих безопасность стран Центральной Азии. Также в статье сложные глобальные изменения в мире оказывают серьезное влияние на центральноазиатский регион и научно подчеркивается необходимость системного решения масштабных проблем в рамках обеспечения национальной безопасности стран этого региона.

Abstract

This article describes the characteristics of threats affecting the security of Central Asian countries. Also in the article, complex global changes in the world have a serious impact on the Central Asian region and scientifically emphasizes the need for a systematic solution to large-scale problems within the framework of ensuring the national security of the countries of this region.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, siyosat, mintaqa, xavfsizlik, globallashtiruv, barqarorlik, geosiyosat, demokratiya, iqtisodiyot, ekstremizm, terrorizm, aqidaparastlik.

Ключевые слова: Центральная Азия, регион, безопасность, глобализация, стабильность, геополитика, демократия, экономика, экстремизм, терроризм, фанатизм.

Key words: Central Asia, region, security, globalization, stability, geopolitics, democracy, economics, extremism, terrorism, fanaticism.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda bo'layotgan global murakkab o'zgarishlar Markaziy Osiyo mintaqasiga ham o'zining jiddiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida mazkur hududdagi davlatlarning milliy xavfsizligini ta'minlash doirasida keng ko'lamli muammolarni tizimli hal etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi milliy xavfsizligiga qaratilgan tahdidlar muammosini o'rganish katta geosiyosiy va geostrategik ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi bilan Markaziy Osiyo mintaqasi hamda ushbu mintaqadagi qo'shni davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilishi va rivojlanishi, bunday rivojlanish strategiyasi va taktikasi, bu jarayonda yuzaga keladigan qonuniyatlarning ilmiy jihatdan belgilanishi va buning natijasida muayyan takliflar kiritish zarurati siyosatshunoslik ilmi oldida turgan vazifalar sirasiga kiradi. Shuningdek, zamonaviy Markaziy Osiyo mintaqasida sodir bo'layotgan jarayonlarni ilmiy o'rganish va tadqiq etish natijalarini O'zbekiston Respublikasining tegishli organlariga taqdim etish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo o'zining geosiyosiy va geoiqtisodiy mezonlariga ko'ra geosiyosiy makonining muhim mintaqalaridan biri hisoblanadi. Osiyoning ushbu mintaqasida sodir bo'layotgan jarayonlar va hodisalarning natijalari nafaqat mintaqa davlatlariga, qo'shni davlatlar va mintaqalarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishga qodir. Mintaqaning xavfsizlik muhiti u bir qator ichki va tashqi omillar bilan shakllanadi, ulardan biri mintaqadagi geosiyosiy vaziyat bo'lsa ikkinchisi geosiyosiy transformatsiya jarayonlardir. Markaziy Osiyoni biz uchun qiziqarli va dolzarb qiladigan yana bir muhim jihat qo'shni davlatlarning o'zaro yaqinligi, tarixiy, madaniy, iqtisodiy va etnik

aloqalarning mavjudligidir. "Mintaqaviy integratsiya globallashuvning tayyorlov bosqichi va uning muqobil variantidir. Shu bois, mintaqaviy integratsiya nafaqat mintaqaviy xavfsizlikni balki, global xavfsizlikni shakllantirish bosqichidir"[1].

Mintaqaning yaqin tarixi, siyosiy manzarasi va xavfsizlik muhitiga umumiy nuqtai Markaziy Osiyo mintaqasining Sovet Ittifoqining xalqaro munosabatlar tizimiga kirishi qulagandan keyingi davrga to'g'ri keladi. U muhim geostrategik mavqega va boy tabiiy resurslarga ega mintaqa 5 ta mustaqil davlatdan iborat: O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston.

1992-yilgacha mintaqa Qozog'iston va O'rta Osiyo deb atalgan. Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev taklifi bilan Osiyo davlatlari rahbarlari sammitida "Markaziy Osiyo" mintaqasi atamasi tarkibiga kirdi. Umuman olganda, chor Rossiyasi davrida mintaqa birlashgan edi. Bu mintaqadagi davlatlar o'z tarkibiga ko'ra respublikalarga bo'linadi. "Qozog'iston Respublikasi milliy xavfsizligi to'g'risida"gi qonunida aytilganidek: "Qozog'iston Respublikasi milliy xavfsizligi – bu mamlakat milliy manfaatlarini real va potentsial tahdidlardan himoyalanganlik holati, shaxs va fuqaro, jamiyat va davlatning dinamik rivojlanishini ta'minlanishidir. Qozog'iston Respublikasining milliy xavfsizligini ta'minlash esa – milliy manfaatlarini real va potentsial tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan milliy xavfsizlik sub'etlarining faoliyatidir"[2], - deb ko'rsatib o'tilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

1991–yilda SSSR parchalanganidan keyin mustaqillikka erishgan mintaqa davlatlari taxminan bir xil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga duch keldilar. Mintaqadagi muammolar va boshqa omillarning o'xshashligi, siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik sohasida integratsiya jarayonlarini jadallashtirish uchun qulay sharoit yaratdi. Bu haqda X.Odilqoriyev va B.Ochilovlar "xavfsizlikning mintaqaviy tizimlari yalpi xavfsizlik tizimining bir qismi hisoblanadi"[3. 247.], degan xulosa beradi.

Shu bilan birga, shuni qo'shimcha qilish mumkinki, umumiy diniy mansublik mavjud bo'lsa-da, mintaqa davlatlari tabiatan dunyoviy va islom fundamentalizmining o'z mamlakatlariga mumkin bo'lgan aralashuvidan xavotirda yashaydi. Bu tendensiyaga qarshi kurash davlatlarni birlashtiruvchi yana bir omildir. Markaziy Osiyoning uchta davlatida boshqa xalqlarga mansub yirik etnik guruhlar yashaydi. Integratsiya etnik nizolar va separatizmning oldini olishda zarur vositadir. Biz sanab o'tgan barcha omillarga qaramay, so'nggi 30 yil ichida Markaziy Osiyo davlatlari samarali mintaqaviy hududga aylandi.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy yetakchilik uchun kurashayotgan davlatlar O'zbekiston va Qozog'istondir. Qozog'iston va O'zbekiston o'zining iqtisodiy, siyosiy salohiyati, hududiy omili, tarixiy va ma'naviy merosi bilan mintaqada yetakchi hisoblanadi[4.175.].

Qirg'iziston va Tojikiston tabiiy resurslari cheklangan, hududi va aholisi kichik davlatlardan biri hisoblanadi. Har ikki davlatning mintaqaviy jarayonlardagi ishtiroki katta qo'shni davlatlarga bog'liq.

Markaziy Osiyo davlatlarining ba'zilariga xavfsizlik muhitiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatorida quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

- 1.Iqtisodiyot darajasi - iqtisodiyot bir yoki ikkita eksport mahsulotiga va inqirozlarga bog'liq. Korruptsiya va fuqarolar nizolari xavfini oshiradi.
- 2.Plyuralistik bo'lmagan siyosiy tizimlarning mavjudligi.
- 3.Muhim masalalar - xavfsizlik va chegaralarni muhofaza qilish, gidroresurslar bo'yicha rejalashtirish, mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmlarining yo'qligi.
- 4.Ekstremistik diniy-siyosiy oqimlarning faolligi.
- 5.Uyushgan jinoyatchilik, ayniqsa, Afg'onistondan giyohvand moddalar savdosi.
- 6.Katta davlatlarning mintaqada hukmronlik uchun kurashi bilan xarakterlanadi murakkab xalqaro vaziyat[5. 168.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ekstremistik diniy-siyosiy oqimlar faoliyati haqida gapirganda shuni ta'kidlash kerakki, keyingi paytlarda Afg'onistondagi xaotik jarayonlarni kengaytirish, diniy-radikalizmni yoyish markaziga aylanmoqda. Bu Markaziy Osiyoning xavfsizlik muhitiga yangi tahdidlar yaratish imkoniyatini oshiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, geografik yaqinlikdan tashqari O'rta Osiyo xalqlariga mansub yirik etnik guruhlar (o'zbek, tojik, turkmanlar) yashaydi va bu etnik guruhlar o'zlari yashayotgan mamlakatning siyosiy hayotida doimo faolligini saqlab qolganlar. Tolibonga qarshi "Shimoliy ittifoq"ga qo'shilgan tojiklar, o'zbeklar, turkmanlarning bugungi kunda ham Tolibon bilan munosabatlari ancha tarang hisoblandi[6.189.].

SIYOSAT

Yaqin kelajakda O'zbekiston Islomiy Harakati kabi islom fundamentalizmining mintaqaga tarqalishi terrorchi diniy-radikal guruhlar faoliyati kengaysa, mintaqa xavfsizligini ta'minlash ancha qiyin kechadi. Yana bir muhim jihatni aytib o'tsak: Kobulda hokimiyatni yana qo'lga olgan Tolibon rasmiylari qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish niyatida ekanini ma'lum qilgan bo'lgan taqdirda ham, ularning bu bayonoti Afg'onistonda, Markaziy Osiyoning dunyoviy hukumatlarida milliy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi tashvishlarni kamaytirmaydi. Avvalo, Afg'onistonda islom fundamentalizmining tiklanishi o'z cho'qqisiga erishib, Markaziy Osiyo mamlakatlari mafkuraviy jihatdan hukmron tendentsiyaga aylanib borishi mumkin.

Shuningdek, Tolibon va boshqa radikal diniy guruhlar o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlarning kuchayishi o'sha guruhlarining mamlakat shimoliy chegaralaridan Markaziy Osiyoga "siqib kirishi" xavfli darajaga yetishi mumkin. Markaziy Osiyo uchun yana bir xavf Afg'onistondagi mojarodir. Uning kuchayishidagi o'zboshimchalik dori vositalarini hududga olib o'tish imkoniyatini oshirayotganidan iborat. Shu esda tutish lozimki, Afg'oniston dunyodagi eng ko'p giyohvandlik o'simliklari yetishtiriladigan va ishlab chiqariladigan davlatlardan biridir. Giyohvand moddalar mamlakatdagi ko'plab mahalliy va transmilliy guruhlarining asosiy daromad manbalaridan biriga aylandi[7. 166.].

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda qilingan hisob-kitoblarga ko'ra, giyohvand moddalar Afg'onistondan dunyoga eksport qilinmoqda. Mablag'larning 25 foizi Markaziy Osiyo mintaqasidan koridor sifatida foydalangan holda amalga oshiriladi[8.]. Markaziy Osiyo yirik, mintaqaviy davlatlarning geosiyosiy manfaatlarida Markaziy Osiyoning muhim geostrategik mavqei va boy tabiiy resurslari mintaqani bir qatorga aylantiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi tarixiy nutqida bu masalaga ham jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratib: "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralardan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q. O'zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyalar loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi"[9.96.] deya alohida ta'kidladi.

Mintaqadagi manfaatlar (geosiyosiy, asosiy kuch markazlarini (iqtisodiy va boshqalar) quyidagicha tartiblash mumkin: Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya, Eron, Hindiston, Pokiston, Yevropa Ittifoqi, Saudiya Arabistoni, Yaponiya va boshqalarni quvvat markazlari qatoriga mintaqada manfaatdor davlatlar kiritilishi mumkin, lekin mintaqadagi faqat shu davlatlar nisbatan zaif ta'sir qilish imkoniyatlari, manfaatlar farqi va boshqalarga ko'ra farqlanadi. Masalan, Rossiya va Xitoyning mintaqadagi manfaatlari va ta'siri keng imkoniyatlarga ega asosiy davlatlar deb hisoblash mumkin. Mintaqadagi har ikki davlat manfaatlarining xilma-xilligi va alohidaligi bilan ajralib turadi.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin Rossiya "yaqin xorij" siyosatiga ko'ra hayotiy manfaatlariga ega hududlardan biri sifatida Markaziy Osiyoga da'vo qildi. Mintaqada jiddiy geosiyosiy, xavfsizlik tizimi iqtisodiy manfaatlardan tashqari, shu bilan birga, Moskva bu manfaatlarni qondirish uchun ham xilma-xildir imkoniyatlarga ega. Xavfsizlik masalasi Rossiyaning mintaqaviy siyosatining asosiy jihatlaridan biri sifatida qabul qilinadi. Avvalo, Markaziy Osiyo janubiy chegaralari xavfsizligi nuqtai nazaridan Rossiya uchun "bufer zonasi" rolini o'ynaydi. Rossiya mintaqaning beshta davlatidan uchtasida (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston) hatto Tojikistonning Afg'oniston bilan davlat chegarasini qo'riqlashda ham harbiy bazalarga ega.

2013–yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada yashovchi ruslar soni 7 milliondan ortiq. Mintaqada yashovchi ruslarning yarmidan ko'pi (4,2 million) Qozog'istonda istiqomat qiladi, bu mamlakat aholisining 24 foizini tashkil qiladi. Shu bilan birga, mintaqada yashovchi 16 milliondan ortiq aholi kundalik asosiy muloqot sifatida rus tilida gaplashadi

Moskvaning mintaqaga ta'sir o'tkazish imkoniyatlaridan biri bu mintaqada davlatlaridan Rossiyaga migrantlar oqimidir. Bu mintaqaviy davlatlardan millionlab muhojirlar Rossiyada va o'z mamlakatlarida ishlaydi. Ular yuboradigan yillik mablag'lar milliardlab AQSh dollari miqdorida baholanadi. Bu fondlar, ayniqsa, mintaqaning kichik mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat barqarorligida muhim rol o'ynaydi.

Rossiyaning Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini kuchaytirish uchun amalga oshirayotgan strategiyalaridan biri mintaqadagi davlatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Xususan, mintaqa so'nggi 30 yilda Moskva bu davlatlarni mintaqaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi bilan bog'liq. Sovuq urushdan keyingi davrning birinchisi 2000-yildan hozirgacha u asosan Moskva tashabbusi bilan mintaqa davlatlari ishtirokida yaratilgan.

Bunday tashkilotlarni quyidagicha tartiblash mumkin: MDH, KXShT (Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti), ShHT (Shanxay) Hamkorlik tashkiloti), Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi. Bularning barchasi xalqaro tashkilotlardir. Moskvaning uni yaratishdagi asosiy maqsadlaridan biri Markaziy Osiyoni o'z ta'sir doirasida saqlab qolish va mintaqaga ta'sirini kuchaytirishdir.

XULOSA

Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun yakunlangan 2022-yil ko'tarilishlar va pasayishlarga to'la. Eski muammolar – chegara mojarolari va resurslar tanqisligi fonida yirik davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy qarama-qarshilikning yangi bosqichi boshlandi. O'zbekistondagi "Ma'no" tadqiqot tashabbuslari markazi direktori Baxtiyor Ergashev la-centr.ru saytiga bergan intervyusida 2023-yil mintaq va dunyo uchun ham oson bo'lmasligini aytgan edi.

Agar bu Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi urushlar yoki to'g'ridan-to'g'ri jiddiy qurolli to'qnashuvlar haqida ketayotgan bo'lsa, bizningcha, bu ehtimoldan yiroq. Albatta, og'riqli nuqtalar ham bor: Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi chegara masalasi shular jumlasidandir. Ammo ishonchimiz komilki, bu mojaro hal qilinadi. Qozog'iston ham, O'zbekiston ham bundan juda xavotirda: mintaqaviy kuchlar sifatida ikki davlat o'z pozitsiyasini Gita rahbariyatiga yetkazish imkoniyatiga ega. Qolaversa, qo'shni Xitoy ham, Rossiya ham ziddiyatni kuchaytirish niyatida emas.

Shuningdek, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston qishning ma'lum fasllarida elektr quvvati taqchilligini boshdan kechiradi, bu so'nggi 20 yil davomida bu mamlakatlarning barchasida kuzatilgan, biroq hozircha mintaqa davlatlari ichida va o'rtasida jiddiy muammolarga olib kelgani yo'q. Mojaro, shuning uchun 2023-yilda elektr yoki gaz taqchilligi tufayli mojaro bo'lmaydi, deb o'ylaymiz. Tanqislik bor, albatta va O'zbekistonda isitish mavsumida gaz taqchilligini boshlagani ma'lum. Bu aholi hayotining keskin yomonlashishiga olib keladimi? Birinchidan, aholining hozirgi turmush darajasi yuqori emas, ammo tanqislik ijtimoiy noroziliklarning katalizatoriga aylanadimi? Bizningcha, buning uchun hech qanday dastlabki shartlar yo'q: hukumat turli chora-tadbirlar bilan inqirozdan o'ta oldi va bu tartibsizliklarga olib kelmaydi, deb o'ylaymiz.

Qozog'iston qishda elektr energiyasini qattiq iste'mol qiladi va tez-tez sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalardan aziyat chekadi. Ammo mamlakat hukumati muammoni bartaraf etishga harakat qilmoqda. Elektr yo'qligi, turli joylarda isitishning ishdan chiqishi butun mamlakatning ahvolini og'irlashtiradi, deb o'ylamaymiz.

Tojikistonda vaziyat ancha tartibga solinadi va amaldagi hokimiyatni safarbar qilishga qodir ichki kuchlar yo'q. Turkmanistonda o'tgan bir yil ichida hokimiyatning bosqichma-bosqich o'tishi shuni ko'rsatdiki, mamlakatda ham jiddiy tizimsiz kuchlar yo'q. Qozog'iston esa yanvar voqealaridan keyin saboq oldi va keng ko'lamli norozilik namoyishlari boshlanishi kutilmaydi. Mamlakatda yangi bosqichda boshlangan siyosiy va iqtisodiy islohotlar ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda[10.]. Bizningcha, hozir rejimni ag'darish uchun konstitutsiyaga zid yo'l tutadigan kuch yo'q.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelganidan so'ng taklif qilgan islohotlar rejasi ham keng qo'llab-quvvatlandi. Prezidentning islohotlarga yondashuvi uchun ishonch votumi bor va mamlakatda notinchlik bo'lmaydi, deb o'ylayman. Hatto 2022-yilda Qoraqalpog'istonda sodir bo'lgan voqealar ham hukumatning vaziyatni nazorat qilishda o'ziga to'liq ishonganini, favqulodda vaziyatlarga javob qaytarish va xulosa chiqarishga qodirligini ko'rsatadi.

Qirg'iziston mintaqada bir necha inqiloblarni boshidan kechirgan o'ziga xos davlatdir. Shunday bo'lsa ham, prezident Japarovning jamoasi hozirda vaziyatni qattiq ushlab turibdi. Bizningcha, Japarov hukumati birinchi navbatda qo'shni davlatlar ham Xitoy va Rossiya bilan ham yaxshi munosabatlar o'rnatsa bu kabi muammolarni oldini olishi oson kechadi.

Agar boshqa ekstraterritorial davlatlar, masalan, g'arb davlatlari Qirg'izistonda nimadir qilishni istasa, menimcha, bu safar bu unchalik oson bo'lmaydi: hamma Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni xohlaydi, hamma isyondan charchagan. Navbatdagi davlat to'ntarishi osonlikcha sodir bo'lmaydi: mintaqa davlatlari va ularning mintaqadan tashqaridagi qo'shnilari Qirg'izistonni

SIYOSAT

barqarorlashtirish uchun birgalikda harakat qiladi.

Afg'oniston hududining katta qismini nazorat qilgan "Tolibon" xorijiy qo'shinlarning ketishi bilan o'z bazasini kengaytirishga urinmasligiga, bazani kengaytirmagan taqdirda ham ancha zaif hududlarda o'z ta'sirini kuchaytirishiga hech kim kafolat bera olmaydi. Markaziy Osiyoda Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasidagi mojaro allaqachon Afg'onistonda to'plangan yoki Yaqin Sharqda faolligini saqlab qolgan ayrim terroristik guruhlarining e'tiborini tortgan[11.56.].

Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar bilan solishtirganda Qozog'istonda jiddiy chegaraviy bahslar yo'q. Har holda, bu Qozog'iston rasmiylarining ma'lum darajada geosiyosiy yutug'idir. Biroq qo'shni davlatlar o'rtasidagi hal yetilmagan muammolar butun mintaqa xavfsizligiga tahdid solayotgan bo'lsa ajab emas. Bizning nazaramizda, xalqaro munosabatlar yangi yo'nalish oldi, kuchlar o'rtasidagi ziddiyat kundan kun tezlashib, ular ta'siri ostidagi hududlarda ziddiyat va raqobat kuchayib bormoqda. Osiyoning zamonaviy dunyoda alohida va beqiyos o'rni bor. Masalan, hozirgi vaziyat butun Yevropa xavfsizligi, jumladan, oziq-ovqat va yenergetika xavfsizligi ham Osiyoga bog'liqligini ko'rsatdi. Ya'ni, Osiyo o'z irodasini, kuchini va manfaatlarini G'arb dunyosiga yuklashi mumkin bo'lgan vaziyatda. Energiya inqiroziga tushib qolgan Yevropa Turkiy dunyoning Qozog'iston, Turkiya, Ozarbayjon kabi yetakchi davlatlarining qadr-qimmatini anglab, ularni eng yaqin va muhim strategik hamkor deb bildi. Qadim zamonlardan beri Osiyo insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan. Tibbiyot, matematika, arxitektura va boshqa fanlar va o'rganish Osiyodan tarqaldi.

2023–yilda Markaziy Osiyoda qanday yaxshi narsalar yuz berishi mumkin? degan savolga biz har qanday sabab - irq, diniy va hokazo sabab to'ntarishlar, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan tartibsizliklar bo'lmasa, yaxshi bo'lardi deb hisoblaymiz. Umid qilamizki, 2023-yilda Markaziy Osiyo bu vaziyatdan chiqib ketadi. Asosan, mintaqa davlatlari sheriklik va qo'shma loyihalar zarurligini anglab, hamkorlik orbitasiga chiqmoqda.

Osiyo nominal YaIM va savdo hajmi bo'yicha jahon iqtisodiy yetakchisi sifatida tan olingan. Mintaqa katta insoniy va tabiiy resurslarga ega. Dunyoning 30 ta eng yirik shaharlaridan 21 tasi Osiyoda joylashgan. 2030-yilga borib, o'rta sinf ehtiyojlari uchun sarflangan 30 trillion dollarning atigi 1 trillioni G'arb iqtisodiyotiga tegishli bo'ladi.

Xullas, bugungi kunda yangi dunyo tartibi shakllanmoqda. O'zbekiston yo'l chetida qolib ketgan autsayder rolini o'ynamasligini, balki global jarayonlarning faol ishtirokchisi, ijobiy o'zgarishlarning astoydil tarafdori bo'lishini allaqachon ochiq-oydin bildirgan. Hozirgi nizolarning sabablaridan biri davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchning yo'qligi, ularning bir-biriga dushmanligidir. Global muammolar va keskinlashgan keskinliklar butun dunyoni qamrab olgan sivilizatsiyalar to'qnashuviga olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Drobot G. Sovremenniy mirovoy poryadok i yego perspektivi v trudax rossiyskix uchyonx // <http://www.worldspol.socio.msu.ru>
2. Zakon "O natsionalnoy bezopasnosti Respubliki Kazaxstan" ot 6 yanvarya 2012 goda № 527-IV.
3. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Xalqaro ommaviy huquq. – T.: Adolat, 2007.
4. Tulakov S. Sentralnaya Aziya vo vneshney politike sovremennoy Rossii : Opit politologicheskogo analiza: dissertatsiya... kandidata politicheskix nauk : 23.00.04. - Sankt-Peterburg, 2003.
5. Nikolayev S.A. Sentralnaya Aziya v sisteme mejdunarodnix otnosheniy na sovremennom etape: dissertatsiya... kandidata politicheskix nauk. - Moskva, 2011.
6. Batur A.A. Rol mejdunarodnix organizatsiy v uregulirovanii afganskogo konflikta v XXI veke: dissertatsiya... kandidata politicheskix nauk. - Sankt-Peterburg, 2017.
7. Dyakonova M.A. Sovremennaya vneshnyaya politika Islamskoy Respubliki Afganistan: dissertatsiya ... kandidata politicheskix nauk. - Pyatigorsk, 2014.
8. "The social impact of Afghan drug trafficking in Central Asia", Asia Times, 13 July 2016// <http://atimes.com/2016/07/the-social-impact-of-afghan-drug-trafficking-in-central-asia/>
9. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T. : O'zbekiston, 2018.
10. Aleksandr Gabuyev, Temur Umarov. Nur-Sultan bez Nazarbayeva. O prichinax i posledstviyax krizisa v Kazaxstane. Moskovskiy sentr Karnegi (7 yanvarya 2022).
11. Serebrova A.M. Terroristicheskkiye radikalno-islamistskiye dvijeniya i organizatsii: etapi razvitiya i napravleniya protivodeystviya: dissertatsiya... kandidata politicheskix nauk. - Moskva, 2020.